

Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi AJ kichik va o'rtta tadbirkorlik subyektlariga kapitalga ulush kiritish moliyaviy yordamini taqdim etish yuzasidan 2025 yilning ikkinchi ochiq tanlovini
E'LON QILADI

Moliyalashtirish manbasi nomi:	Iqtisodiyot va moliya vazirligining ssuda mablag'lari hisobidan
E'lon turi:	Ochiq tanlov
E'lon qilingan sana:	2025-yil 7-mart
Loyiha anketasini taqdim etish oxirgi sanasi:	2025-yil 24-mart
Loyiha anketasini yuborish uchun E-mail:	capitaledcom@gmail.com

I. Kapitalga ulush kiritish moliyaviy yordami:

Ushbu moliyaviy yordam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi "Kichik va o'rtta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son Farmoni hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda-Kompaniya) Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomga asosan Kompaniya tomonidan taqdim etiladi. Kapitalga ulush kiritish yordami - ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va qadoqlash loyihalari bo'yicha ko'chmas mulk obyektlari, asbob-uskunalar va boshqa ko'rinishdagi aktivlar (bitim obyekti)ni sotib olish va uni loyiha tashabbuskoriga taqdim etish orqali uning ustav kapitaliga ulushdor bo'lib kirish hisoblanadi.

II. Moliyaviy yordam haqida ma'lumot:

Ushbu moliyaviy yordam ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va qadoqlash tarmoqlari bo'yicha ko'chmas mulk va asbob-uskunalar va boshqa ko'rinishdagi aktivlarni sotib olib, ushbu mulklar bilan loyiha tashabbuskoriga ulushdor bo'lib kirishni ko'zda tutadi.

Moliyaviy yordam — loyiha qiymatining 70 foizi, biroq ustav kapitalining 50 foizi va:

- O'rtta tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 5 mlrd so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda;
- Yillik daromadi 6 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 3mlrd so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda;

tashabbuskorlarning ustav kapitaliga ko'chmas mulk obyektlari, mulkiy komplekslar, asbob-uskunalar, xom-ashyolar va boshqa ko'rinishdagi aktivlar shaklida ulushdor bo'lib kirish sharti asosida taqdim etiladi.

Moliyaviy yordam milliy valyutada ajratiladi. Moliyaviy yordam 7 yilgacha taqdim etiladi.

Moliyaviy yordamdan foydalanganlik uchun vositachilik haqi undirilmaydi.

III. Loyiha tashabbuskorlariga qo'yiladigan talablar:

- yomon kredit tarixiga ega bo'lmasligi;

- byudjet oldida muddati o'tgan qarzдорliklari mavjud bo'lmashligi, tugatish jarayonida va bankrotlik ishi qo'zg'atilmagan bo'lishi hamda korxonaga zarar bilan faoliyat yuritayotgan bo'lmashligi;
- loyihada tashabbuskorlarning kamida 50 foiz ulush bilan ishtirok etishi;
- yillik daromadi o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun kamida 10 mlrd so'm va kichik tadbirkorlik subyektlari uchun kamida 6 mlrd so'm bo'lishi lozim;
- o'n ikki oydan ortiq faoliyat yuritayotgan hamda murojaat sanasida kamida o'n besh nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan o'rta yoki kichik tadbirkorlik subyektiga mansub bo'lishi lozim.

IV. Loyiha tashabbuskorining anketalarini baholanishi:

Loyiha anketasi tasdiqlangan kichik yoki o'rta tadbirkorga xabar yuboriladi (rasmiy sayt orqali ham ma'lum qilinadi) va ulardan to'liq loyiha arizasini, biznes-rejalari hamda boshqa hujjatlarni taqdim etishlari so'raladi.

Amaldagi qonunchilik va ko'rsatmalarga muvofiq barcha talab etiladigan arizalar, hujjatlar va ma'lumotlarni quyida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra baholash uchun tanlab oladi.

V. Ustuvorlik beriladigan loyihalar:

yangi ish o'rinlarini yaratish soni;
 ishchi xodimlarning mehnatiga haq to'lash miqdorlari nisbatan yuqoriligi;
 qo'shimcha qiymat yaratilishining yuqoriligi;
 yashil va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish nazarda tutilgan loyihalarga ustunlik beriladi.

VI. Quyidagi loyihalar moliyalashtirilmaydi:

Qimorxonalar va billiardxonalar, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va (yoki) ular savdosini tashkil etish;

Ilgari olingan kredit (lizing)larni yoki boshqa har qanday qarzni qaytarish;

Lizing va sug'urta kompaniyalari faoliyatini tashkil etish;

Ulgurji savdo, umumiy ovqatlanish hamda alohida tashkil etiladigan avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish (bundan savdo va servis, yo'l bo'yi infratuzilma obyektlari, jumladan kompleks tarkibida avtomobillarga yonilg'i quyish hamda savdo shoxobchalari faoliyatini tashkil etish, "yashil" texnologiyalarni, jumladan elektromobillarni quvvatlantirish faoliyatini tashkil etish mustasno);

Yengil va ilgari foydalanishda bo'lgan yuk avtotransport vositalari sotib olish (chet eldan olib kelinadigan yuk avtotransport vositalari bundan mustasno);

Qishloq xo'jaligi yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihalar (bundan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va qadoqlash loyihalari mustasno).

Yuqoridagi moliyaviy yordamdan foydalanish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari 10 (o'n) ish kuni davomida ilovadagi Anketa ma'lumotlarini capitaledcom@gmail.com pochta manziliga taqdim etishlari mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon raqami **+99871-205-57-57** (2094)